O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI QO‘RG‘ONTEPA TUMANI HOKIMINING QARORI

Qo‘rg‘ontepa tuman, Andijon ko‘chasi 1-uy, tel: 74-723-14-61 Korgontepa@andijan.uz

2024 - yil 28 - fevral 116-1-23-Q/24 Qo‘rg‘ontepa tumani hokimligi

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida 2024 yil 16 yanvar kuni **“2024 yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar”** yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligining byudjetdan eng ko‘p mablag‘ oladigan *(Qishloq xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Transport, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya, Sog‘liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Madaniyat, Sport va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi)* 12 ta vazirliklar bilan qabul qilingan qo‘shma qarorlari va Andijon viloyati hokimining 2024 yil 23 fevral kungi 71-1-0-Q/24-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda tegishli sohaga mas’ul bo‘lgan vazirliklarning “Davlat byudjeti mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o‘rnatish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga asosan:

Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining 2023 yil 26 dekabrdagi "2024 yil uchun Andijon viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida"gi VI-57-255-1-0-K/23-sonli Qarori bilan tegishli sohaga mas’ul bo‘lgan sohalar uchun Davlat byudjetidan 2024 yilda 4,8 trln.so‘m mablag‘ ajratilganligi;

Respublika va Hududiy Ishchi guruhlari tomonidan byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazoratni olib borish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar tartibi *(tegishli vazirliklar kesimida)* tasdiqlanganligi;

tegishli vazirliklar tizimiga 2024 yilda ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash bo‘yicha “yo‘l xarita”lari tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya hamda tegishli vazirliklarning mas’ul xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh Andijon viloyatiga biriktirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Sohalarda davlat byudjeti mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish bo‘yicha tuman Ishchi guruhlar tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat ishchi guruhlariga ish faoliyatini “Respublika va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy ishchi guruhlari tomonidan byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazoratni olib borish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar tartibi” asosida tashkil qilish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini doimiy monitoring qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Viloyat ishchi guruhlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

a) sohalar va uning tarkibi kiruvchi tashkilotlarning xarajatlarini amalga oshirish ustidan qat’iy va ta’sirchan nazoratni o‘rnatish.

Bunda, ikki hafta muddatda har bir xarajatning amalga oshirilishidan oldin, joriy va yakuniy nazoratni amalga oshirish, zarur hollarda, tegishli vazirlik, biriktirilgan rahbar hamda mas’ul xodimlar bilan kelishishi tartibini ishlab chiqib, joriy etish;

b) sohada Davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini oshirish, ushbu xarajatlarning joyiga chiqqan holda o‘rganish, shu jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish orqali masofadan turib nazoratni amalga oshirish

choralarini ko‘rish;

v) Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va G‘aznachilik xizmati boshqarmalari bilan birgalikda sohalarda quyidagi yo‘nalishlarda byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e’tibor qaratish:

byudjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi;

ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan ob’ektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o‘tkazish;

byudjet tizimi byudjetlaridan to‘lanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash;

davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish;

davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o‘rganish;

byudjet jarayonining barcha bosqichlarida xarajatlarning maqsadli va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish.

6. Hududiy ishchi guruhlariga:

tegishli soha tashkilotlarida amalga oshirilayotgan qurilish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlari bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni muddatlariga rioya etilishi hamda moliyalashtirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish;

Bunda, ob’ektlardagi qurilish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlarini sifatsizligi, muddatlarga rioya qilmaslik yoki mablag‘larni moliyalashtirishdagi kechikishlar kuzatilgan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrdagi PQ-43-son qarori bilan prokuratura organlarida tashkil etilgan “Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish” shtablariga tezkor ma’lumotlar kiritish;

samarasiz xarajatlarni maqbullashtirib, sohadagi boshqa zarur yo‘nalishlarga yo‘naltirish hamda tender va tanlovlarning qonuniy va shaffof o‘tkazilishini doimiy nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oy yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Bosh prokuraturaga axborot kiritib borilsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni hokimining birinchi o‘rinbosari E.Yunusov va hokim o‘rinbosarlari A.Yuldashev, B.Tursunov, A.Abdug’opirov va S.Mamarasulovlar zimmasiga yuklatilsin.

Qo'rg'ontepa tuman hokimi **A.Xalilov**

Qo‘rg‘ontepa tuman hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
116-1-23-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tegishli sohalar tizimida byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan manitoring va nazoratini olib borish bo‘yicha tuman

ISHCHI GURUX TARKIBI

№	F.I	Lavozimi
1	E.Yunusov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ishchi gurux raxbari
2	O.Mamajonov	Tuman prokurorining o‘rinbosari, ,ishchi gurux raxbarining o‘rinbosari
3	B.Tursunov	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari ishchi gurux raxbarining o‘rinbosari
4	A.Abdug‘opirov	Tuman hokimining, sanoat rivojlatirish kapital qurilish kamunikatsiyalari kammunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosar, ishchi gurux raxbarining o‘rinbosari
5	S.Mamarasulov	Tuman hokimining, yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosar, ishchi gurux raxbarining o‘rinbosari
6	S.Yuldashev	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
7	G‘.Xurboyev	Bosh prokuratura xuzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Qo‘rg‘ontepa tuman bo‘limi boshlig‘i
8	L.Mamajonov	G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i
9	O.Shokirjonov	Irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i
10	D.Xo‘djamberdiyev	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
11	K.Nabiyev	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
12	A.Nasirdinov	Qurilish va uy joy komunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
13	Sh.Xabibjonov	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
14	T.Karimov	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
15	I.Dadaboyev	Ekologiya, atrof-muxitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi boshlig‘i
16	A.Rizayev	Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
17	B.Usmonv	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari **Ishchi gurux kotibi**